

KREATIVLIK TUSHUNCHASINING PEDAGOGIK - PSIXOLOGIK O'RGANILISH XUSUSIYATLARI

S.Q.Eshboyeva

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti

Pedagogika kafedrasи p.f.f.d (PhD)

Zuxra Mirzaliyeva

Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (Boshlang'ich ta'lim)

mutaxasisligi 1-kurs magistranti

Annotasiya: Ushbu maqolada kreativlik tushunchasining kelib chiqish bosqichlari, kreativlikning zaruriy sifatlari, o'quvchilar tafakkurini kreativ asosda o'stirishning pedagogik jihatdan o'rganilganligi, boshlang'ich sinf o'quvchilari ijodiy faoliyatini rivojlantirish, iste'dodini takomillashtirish haqida ma'lumotlar bayon qilingan.

Kalit so'zlar: pedagog, kreativlik, tafakkur, tushuncha, usul, metod, ta'lif, sharoit, iqtidor, izlanish.

Bugungi kunda ta'lif tizimida kreativ izlanishlar haqiqiy ilmiy nazariyaga, jamiyatning rivojlanish qonuniyatlariga, o'qitishning nazariy asoslari, shaxs rivojlanishini harakatga keltiruvchi kuchlari va uning shakllantirish sharoitlari to'g'risidagi bilimlarning keng tizimiga tayangan holdagina muvafaqqiyat qozonadi deb hisoblaymiz. Inson hayoti sharoitlarini o'zgartiruvchi va insonni o'zini ham o'zgartiruvchi faoliyat hozirgi zamonda ta'lifning umumiylashtirish asoslaridandir. Inson faoliyati jamiyat taraqqiyotining har bir tarixiy davrida turli xil ko'rinishlar, faoliyatning turli shakllarida farqlanib keladi.

"Kreativlik so'zini ilk bor 1922-yilda AQSh olimi D. Simpson tomonidan qo'llanilgan. Ushbu atama orqali shaxs qolipdagi, odatiy tafakkurdan voz kechish qobiliyatini ta'riflagan. Kreativlik (lot. creatio - yaratish, vujudga keltirish) - bu insonning noodatiy g'oya, fikr bera olish, muammolarni takrorlanmas, original yechimini topish, tafakkurning an'anaviy shakllaridan voz kecha olishga bo'lgan qobiliyatdir"¹

Sharq mutafakkirlari: Imomal-Buxoriy, Abu Iso Muhammad At-Termizi, Abu Nasr Forobi, Abu Mansur al-Moturidiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Yusuf Xos Hojib, Mahmud az-Zamaxshariy, Burhoniddin Marg'iloniy, Najmuddin

¹ "Pedagogik Kompetentlik va kreativlik asoslari" Moduli bo'yicha o'quv-uslubiy qo'llanma : Toshkent 2015 45-bet.

Kubro, Bahouddin Naqshband, Husayn Voiz Koshifiy, Ahmad Donish va boshqalar asarlarida yosh avlodga puxta va mustahkam bilim berishda ularning ijodiy faoliyatini rivojlantirish, iste'dodini takomillashtirishga alohida e'tibor berilgan. Masalan, Az-Zamaxshariy insonning faolligini oshirishda quyidagilarga e'tibor berish lozimligini uqtirgan: birinchisi- fahm -farosat tezligini tarbiyalash, inson diqqatini zarur va muhim narsalarga, ya'ni hal etilayotgan masalalarning ichidan eng muhimini ajratibolish qobiliyati; ikkinchisi - bilimlarni tez egallash qobiliyati. Bunda bilimlarni egallahda butun diqqatini o'rganilayotgan muammoga qaratish va uni o'zlashtiribolishgaerishish; uchinchisi-qo'yilgan muammoni tez anglab olishga butun diqqatini qaratish; to'rtinchisi-o'rgangan bilimlarini esda saqlash qobiliyati va boshqalar.

Abu Rayhon Beruniyning "Aql asosida erishiladigan natijalar" haqidagi ta'limoti o'qitish nazariyasida alohida o'rin egalladi. Uning fikricha buyumlarni chinakam bilish, tashqi ko'rinishini tahlil qilish sababalarini aniqlash asosida idroketishgaerishiladi- deydi. Abu Ali ibn Sino "Aql" deganda insonning tug'ma iste'dodini, shuningdek tajriba asosida va bilish jarayonida shakllanadigan fikrlash qobiliyatini tushunadi. Aqlni – "Insoning birlamchi tug'ma sohlom fikrashi yaxshi va yomon ishlarni vujudga keltiradigan, ularni farqlaydigan kuch" - deb ta'riflaydi. Aql insonning xatti-harakatlarida namoyon bo'ladi. Inson aql yordamida narsalar va hodisalarini aniqlaydi, umumlashtiradi hamda ularning eng yaxshilarini tanlaydi, - deb uqtiradi. Demak, ulug' mutafakkirlarimiz ham shaxs rivojlanishida faoliyat va ayniqsa kreativ faoliyatning ahamiyatiga alohida e'tibor berishganlar, biroq o'sha davrda ijodiy faoliyat deb yuritilgan. O'quvchilar kreativ faoliyatini rivojlantirishda ularga o'ziga xos yondashuv ham katta ahamiyat kasb etadi. Ma'lumki, har bir bola o'ziga xos, betakrordir. Shaxsning o'ziga xosligi uning turli xil individual va ijtimoiy rivojlanish omillari ta'sirida shakllanadigan psixikasining xususiyatlari bilan belgilanadi.

O'zbek pedagogi Mamatqulova Saodatxon kreativlikning zaruriy sifatlari deya quyidagilarni sanab o'tgan:

1. Ijodiy yo'nalganlik, mantiqiy fikr yuritish
2. Topqirlik, ishbilarmonlik boy tasavvurga egalik
3. Ijodiy ta'sirchanlik va tashkilotchilik
4. O'z ijodkorligini to'liq namoyon qilish
5. Refleksiv qobiliyat hissiy barqarorlik
6. Mavjud tajriba va bilimlar asosida yangi qarorlarni qabul qilish malakasi"²

² Mamatqulova S.R Farg'ona viloyati Beshariq tumani 32- umumiy o'rtta ta'lim maktabi o'qituvchisining maqolasidan

“Zamonaviy fan imkoniyatlari ijodkorlik tabiatining mavjud dalillar va savollarni to‘liq qoniqtiradigan universal tushuntirish imkoniyatiga ega emas. Hozirgacha Vatanimizda va chet ellarda to‘plangan bilimlar ijodkorlik psixologiyasi mohiyatini tushunishga yetarli emas. Jamiyat taraqqiyoti tajribasida psixologiya va pedagogikada ijodkorlik psixologiyasi sohasida izlanishlarni faollashtirish taqozo etilmoqda, chunki ijodkorlik natijalari faqatgina shaxsi tasnifga ega emas, balki ijtimoiy ahamiyatga egadir”³. PISA diqqatni o‘n besh yoshli o‘quvchilardan mantiqan kutish mumkin bo‘lgan kreativ fikrlash jarayonlariga qaratadi. Dilrabo Elmurotova Pedagogning kreativlik potentsiali uning barcha xususiyati sifatida ko‘rinadi. Bu ijodiy faoliyatning birlamchi sharti va natijasi hisoblanadi. Bu sifat insonning o‘z-o‘zini namoyon etish obilyatiga egalikni va tayyorlikni bildiradi. Shu jumladan, kreativ hamma mutaxassisning o‘z qobiliyatları, tabiiy va ijtimoiy kuchi yaxlit tarzda namoyon bo‘ladi.

“Kreativ potensial bilish jarayoniga yo‘naltirilgan ijodkorlik bilan uzviy bog‘liq. O‘qituvchining kreativ potentsiali an‘anaviy tafakkur yuritishdan farqli ravishda quyidagicha namoyon bo‘ladi:

- tafakkuming tezkorligi va egiluvchanligi;
- yangi g‘oyalarni yaratish qobiliyati;
- bir qolipa fikrlamaslik;
- o‘ziga xoslik;
- tashabbuskorlik;
- noaniqlikka toqat qilish;
- zakovatli bo‘lish”⁴

“Patti Drapeau- shunday deydi: “Garchi o‘zingizni kreativ emasman deb hisoblasangiz, ammo hozirdanoq kreativ tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan darslarni tashkil eta boshlashningizni maslahat beraman. Birgina Ken Robinson tomonidan 2007 yilda tayyorlangan “Maktab kreativlikni barbod etyaptimi?” nomli video lavhani YouTube saytida 5 mln marta tomosha qilingan.”⁵, Shu jumladan, pedagoglar kreativlik asoslарini bilishga astoydil kirishganlar.

Pedagoglarda ularning faoliyatini yaxshilash uchun ko‘plab ijodkorlikni rivojlantirishga doir adabiyotlar shakllantirilyapdi, Ta’lim departamenti boshchiligida tayyorlangan videolar asosida noan‘anaviy darslar tashkillashtirilyapdi. “Emebaylning fikricha, kreativlik “muayyan soha bo‘yicha

³ Tashmatova S.R.(2023). Kreativlikning mohiyati va ta‘lim jarayonida tutgan o`rni.B 128–131.

⁴ D.Elmurotova va N.Misirova “Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari” 133 b

⁵ Nilufar Abdusattorovna Umurzoqova Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti maqolasidan.

o‘zlashtirilgan puxta bilimlar bilan birga yuqori darajada noodatiy ko‘nikmalarga ham ega bo‘lish” demakdir. Vigotskiy insonni yaxlit mavjudlik sifatida ko‘radi. Insonning rivojlanishi insonning butun hayoti davomida sodir bo‘ladi va insoniyatning eng muhim mezonlaridan biri ijodkorlikdir, chunki hayot jarayonida tasavvur ijodkorlikning namoyon bo‘lishini ta’minlaydigan ichki mexanizm sifatida rivojlanadi. Ijodkorlik - bu ijodkorlik qobiliyatini ko‘rsatadigan insoniy xususiyatdir.”⁶. S.L. Rubinshteyn ijodkorlikni “Yangi o‘ziga xos narsalarni yaratish, bundan tashqari, nafaqat ijodkorning rivojlanish tarixiga, balki fan, san’at va boshqalarning rivojlanish tarixiga ham kiritilgan” faoliyat sifatida tushunadi. Ya.A.Ponomarev ta’kidlaganidek, o‘rganib chiqilgan o‘z harakatiga ega bo‘lgan shaxsgina ijodiy jarayonga qodir hisoblanib, bu shaxsga faoliyatning ba’zi bir qismida uning keyingi faoliyatiga kerak bo‘lgan maxsus bilimlarni to‘g‘ri tarzda o‘rganishgaga yordam beradi. rivojlantirish, shuningdek, insoniy fazilatlarni talab qilish, ularsiz haqiqiy ijodkorlik mumkin emas. Ijodkorlikning psixologik mexanizmining markaziy bo‘g‘inining asosiy xususiyati intuitiv va mantiqiy birlikdir. Intuitiv (ongsiz) funksiyasi - yangisini yaratish, mantiqiy funksiyasi - uni aniqlash. Ya.A.Ponomarevning fikriga ko‘ra, ijodkorlik qobiliyati bilan ikkita insoniy fazilatlar bog‘liq - qidiruv motivatsiyasining intensivligi va faoliyatning “qo‘sishimcha mahsulotiga” sezgirlik. Ya’ni, ijodkorlikning mohiyati intellektual faoliyat va o‘z faoliyatining qo‘sishimcha mahsulotiga nisbatan sezgirlik (sezuvchanlik) dir. Ijodkor odam ikkinchi darajali natijalarni, ya’ni yangi narsalarni yaratishni ko‘radi, ijodkor bo‘lmagan odam esa yangilikdan o‘tib, faqat maqsadga muvofiq natijalarni ko‘radi. Shunday qilib, Ya.A.Ponomarevning ijodkorlik nazariyasi ijod jarayoniga, demak, inson ijodkorligining shakllanishiga yordam beruvchi muhim sifatlarni aniqlash imkonini beradi.

G‘arbliklar uchun kreativlik, yangilik sanaladi. Ular kreativlik negizida noan’anaviylik, qiziquvchanlik, tasavvur, hazil-mutoyiba tuyg‘usi va erkinlik mavjud bo‘lishiga e’tiborni qaratadilar. Garchi g‘arbliklar va sharqliklarning kreativlik borasidagi fikrlari turlicha bo‘lsa-da, biroq, har ikki madaniyat vakillari ham mazkur sifat va unga egalikni yuqori baholaydilar. Psixologik moslashuvchanlik inson psixikasining aqliy jihatlari bilan o‘zaro ta’sir qilishni osonlashtiradi, bu esa ijodkorlikning psixologik mexanizmining yaxlitligini amalga oshirishga imkon beradi. Ijodiy motivatsiyaning kuchi odamning noaniq, ya’ni psixologik umidsizlikka uchragan vaziyatda yangi narsani izlashda qatiyatligini qo‘llab-quvvatlaydi. Bu motivatsiya insonni ijodiy vaziyatdan shoshilinch

⁶ Shahrabsabz shahar Maktabgacha ta’lim bo‘limi tasarrufidagi 15-DMTT tarbiyachisi Mahatova Davlatoy Dilmurodovnaning maqolasidan.

chiqishdan yoki aniqlik, ishonch zonasiga ketishdan saqlaydi. Insonning turli mavzudagi, ijtimoiy-madaniy va boshqa kontekstlardan xabardorligining kengligi va chuqurligi uning ijodiy izlanishlari innovatsion mahsulotlarining “qo’shimcha mahsulotini” aniqlashga imkon beradi.”⁷

Olimlar insonning ijodiy faolligini ta’minlaydigan quyidagi asosiy omillarni aniqlaydilar:

1. ijodkorlik,
2. ijodiy salohiyat,
3. intellektual faoliyat
4. supra-situatsion faoliyat

Har bir insonda o‘z qiziqishi doirasida ijodkorlik shakllangan bo‘ladi, faqat uni yuzaga chiqara olishni bilishi kerak.

Ijodkorlikning yuzaga chiqishida tashqi muhitdan ham ko‘ra insonning ichki muhiti “MEN”i yetakchilik qiladi.

Xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilarning kreativ faoliyatini rivojlantirishning vazifalaridan biri ham o‘qishga bo‘lgan ijodiy munosabatni shakllantirish va tarbiyalashdan iborat. Umuman olganda, bilimlar tizimi, ko‘nikma va malakalar, kompetensiyalar mustaqil fikrlash hamda ushbu bilimlarni amaliyotda qo‘llay olish tanish va notanish vaziyatlarda, kundalik faoliyatda qo‘llay bilish, bunday faoliyat kreativ faoliyat turini kasb etadi. Boshlang‘ich ta’lim tizimida beriladigan nazariy g‘oyalar boshlang‘ich sinf o‘quvchilar kreativ faoliyatini rivojlantirish modelini yaratishga yordam berdi va asos qilib olinadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Altshuller G.S., Vertkin I.M. “Qanday qilib daho bo’lish mumkin”. 124-bet.
2. Bogoyavlenskaya D. B. Ijodiy qobiliyatlarni o‘rganish mavzusi va usuli haqida // Psixologik jurnal. 1995 yil. № 5.
3. Boltayeva SH. Boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilar ijodiy faoliyatini shakllantirish. // Xalq ta’limi, 2004, № 3.-34-34 betlar.
4. Boltayeva SH. Boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilar ijodiy faoliyatini rivojlantirish. //Pedagogika nazariyasi va tarixinining ayrim dolzarb muammolari. / Ilmiy ishlar to‘plami.- Toshkent: Fan, 2006.-B.142-144.
5. D.Elmurotova va N.Misirova “Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari” 133 b
6. Pichurin S.S. “Yosh o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish masalasi”. Boshlang‘ich muktab plyus oldin va keyin.–2004 yil 51-53-betlar

⁷ Altshuller G.S., Vertkin I.M. “Qanday qilib daho bo’lish mumkin”. 124-bet.

7. “Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari” modul bo‘yicha o‘quv-uslubiy qo‘llanma: Toshkent 2015. 45-bet.
8. Sh.R.Tashmatova “Kreativlikning mohiyati va ta’lim jarayonida tutgan o’rni”. B 128–131.
9. Eshboeva, Surayyo Kahramon Qizi (2021). USE OF PEOPLE'S ORAL CREATIVITY IN THE FORMATION OF ECOLOGICAL CONCEPTS OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS ON A CREATIVE BASIS. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1 (10), 763-769. doi: 10.24412/2181-1784-2021-10-763-769
10. Эшбоева С. и др. Бошланғич синф ўқувчиларининг экологияга оид тушунчаларини креатив ёндашув асосида такомиллаштиришнинг ўзига хос хусусиятлари //E Conference Zone. – 2022. – С. 124-130.
11. Эшбоева С. и др. Бошланғич таълимда экологик таълим-тарбияни шакллантиришда креативликни такомиллаштириш методикаси //E Conference Zone. – 2023. – С. 29-36.
12. Эшбоева, С. (2023, January). Бошланғич таълимда экологик таълим-тарбияни шакллантиришда креативликни такомиллаштириш методикаси. In E Conference Zone (pp. 29-36).
13. Эшбоева С. и др. Бошланғич синф ўқувчиларининг экологияга оид тушунчаларини креатив ёндашув асосида такомиллаштиришнинг ўзига хос хусусиятлари //E Conference Zone. – 2022. – С. 124-130.
14. Eshboeva S. Creative approach to forming ecological concepts in primary class students. – 2022.
15. Eshboyeva, S. (2022). Didactic possibilities of creative approach in forming ecological concepts in primary class students. Conferencea, 200-205.
16. Eshboeva, S. (2022). Creative approach to forming ecological concepts in primary class students.
17. Эшбоева, С. К. (2018). Влияние индивидуальных особенностей на развитие и воспитание школьников. Гуманитарный трактат, (29), 48-51.